



BUYUK OLIM ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUDINING 1050-YILLIGIGA BAG'ISHLANADI

BERUNIY MEROSINI XALQARO MEDIA MAYDONDA KENG TARG'IB QILISH ZARUR

Suhbatdosh

Beruniy Alimov 1973-yil 4-sentabr kuni Xorazm viloyatida tug'ilgan. 1994-yil Hindiston ommaviy kommunikatsiyalar instituti (IIMC) va 1995-yil O'zbekiston milliy universitetini jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Jahonning 30 dan ziyod mamlakatlarida jurnalistik faoliyat olib borgan. Filologiya fanlari doktori, dotsent. "XXI asr media muhitida O'zbekiston imijini shakllantirishning nazariy-kognitiv aspektlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekiston OAV materiallari misolida)" mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. "Yangi media ta'lim markazi" NNT direktori, O'zDJTU media va kommunikatsiyalar ITI direktori. Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 200 dan ziyod ilmiy va ommabop maqolalari xorijiy va milliy nashrlarda chop etgan. Shuningdek, mamlakat media imiji mavzusidagi qator ilmiy asarlar muallifi. Jumladan, Media muhitda O'zbekiston imiji (2020-y.), Media makonda milliy manfaatlar (2019-y.). Qator mukofotlar sovrindori. Xususan, "O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligi" esdalik nishoni (2006-y.), "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishoni (2020-y.), "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni (2022-y.) bilan taqdirlangan.

Savol

Xabaringiz bor, 2021-yilda YUNESKO Ijroiya Kengashining 211-sessiyasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) tavalludining 1050-yilligini YUNESKO shafeligida

2022-2023-yillarda keng nishonlash bo'yicha qaror qabul qilindi. 2022-yil 25-avgust kuni "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yillicini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari qabul qilindi. Sizda Abu Rayhon Beruniy hazratlarining bir vorisi o'laroq bu qarorlardan so'ng qanday o'y-fikrlar kechmoqda?

Javob

Prezident Shavkat Mirziyoyev buyuk olimning bizga qoldirgan bebaho merosini ulug'lash barobarida, ushbu sanani munosib kutib olish bo'yicha alohida hujjatni imzoladilar. Unda millatimizning buyuk farzandi Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan salmoqli hissasini xalqaro darajada keng targ'ib qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, ushbu tarixiy sananing YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilot shafeligida nishonlanishi meni ikki barabar xursand qilmoqda.

Albatta, bu barchamiz uchun juda muhim tarixiy sana. Beruniy bobomizning buyuk siymolari Yangi O'zbekistonni dunyo jamoatchiligiga yanada yaqinroq tanishtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi, deb o'ylayman. Chunki o'tmishi qudratli xalqning kelajagi ham buyuk bo'lishiga hech qanday shubha yo'q.

Savol

Akademik Krachkovskiy ta'kidlab o'tganidek, "Beruniy qiziqqan sohalarni sanab o'tishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarni sanab o'tish osonroqdir". 67-стр. Bugungi axborot asrida bir tadqiqotchining, bir olimning Beruniy shug'ullangan sohalarni to'liq tadqiq qilib, o'rganib chiqishi amri mahol. Aytingchi, Abu Rayhon Beruniy dahosi va ijodi sizni qaysi qirralari bilan qiziqtirgan? U bo'yicha qanday tadqiqot ishlari, kuzatishlar olib borgansiz?

Javob

Abu Rayhon Beruniy siymosi, bekitmayman, meni bolaligidan beri qiziqtiradi. Chunki, katta gapirish bo'lmasin, kamina hazrat Abu Rayhon Beruniy 1000 yoshga to'lgan kunlari dunyoga kelganman. Beruniy boboning ming yillik yubileyi haqidagi xabarni radio orqali eshitib qolgan dadam rahmatlik, hech ikkilanmasdan, bobokalonimizdek yaxshi inson, olim bo'lsin deb ismimni Beruniy qo'ygan ekanlar. Mana 50 yildirki ana shu sharafli va mas'uliyatli nomni ko'tarib yuribman.

Alloma qilgan ishlarining mingdan birini qilayotgan bo'lsam, men o'zimni dunyodagi eng baxtli odam deb bilaman. Va dadamning orzuini qaysidir ma'noda uddalagandekman. Bugun ustozlarimning yaqin ko'magi va daldasi bilan jurnalistika yo'nalishi bo'yicha filologiya fanlari doktori darajasiga erishdim.

Dissertatsiya ishim xalqaro media makonda O'zbekiston imiji masalalari bilan bog'liq bo'lganligi uchun Beruniy dahosining mamlakatimiz, millatimiz sha'ni va shuhratiga qo'shgan hissasini o'rganganman.

Beruniyning ayniqsa "Hindiston" va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari meni hanuzgacha hayratlantirib keladi. Tom ma'noda ulardan ilhom va ijodiy quvvat olaman.

Savol

Ilm kishilarining ijodi hamisha ko'pchilikni qiziqtirgan, e'tiborini tortgan. Shu ma'noda beruniyshunoslik ham alohida bir mavzu. Sizningcha, ilk beruniyshunoslik qachondan boshlangan? O'rta Osiyo va jahon ilm-fanida dastlabki beruniyshunoslardan, shu kungacha bo'lgan yirik beruniyshunoslardan kimlarni bilasiz?

Javob

Buyuk alloma haqidagi dastlabki izlanishlar XII-XII asrlarga borib taqaladi. Arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo'riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioanni Bar Ebrey (1226–1286) Beruniyga shunday baho beradi: "O'sha o'tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o'tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'tmish ilmlarda shuhrat qozondi".

Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, al-Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilina boshlandi. Beruniy asarlariga bag'ishlangan yevropalik olimlar J. Reno, E. Zaxau, G. Zuter, E. Videman, K. Nallino, J. Sarton, R.Rayt, M.Meyerxof, osiyolik olimlar S.X.Nasr, M.Kozim, S.Baraniy, M.Nizamuddin, Sh.Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Abu Rayhon Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amerikalik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uni o'z davrining birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V.R.Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjubda qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi.

Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urf-odatlarini tarixini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga nihoyatda yuqori baho beradilar. Beruniy merosi rus olimlarini ham har tomonlama qiziqtirib keldi. I.Y. Krachkovskiy, S.P. Tolstoy, A.A. Raynov, A.M. Belenitskiy, A. A. Semyonov, B.A. Rozenfeldlarning unga bag'ishlangan asarlari e'lon qilindi. Mashhur sharqshunos olim I.Yu. Krachkovskiy Abu Rayhon Beruniy merosiga yuqori baho berib, "uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir" deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Beruniyning o'z vatani O'zbekistonda ham, uning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H.M. Abdullayev, I.M.Mo'minov, V.Yu.Zohidov, Y.G'.G'ulomov, U.Karimov, S.A.Bulgakov kabi atoqli olimlarimiz Abu Rayhon Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Hozirgi

zamonda ham bu borada tadqiqot olib borayotgan yetakchi olimlarimiz ko'p. Ulardan Baxtiyor Karimovning nomlarini alohida qayd etib o'tishni istardim.

Savol

Bugungi kun beruniyshunosligini qanday baholagan bo'lardingiz?

Javob

Hozirgi davrda bu borada yoshi ulug' yetakchi olimlarimiz borligi meni juda quvontiradi. Ularning bu borada shu paytgacha qilgan va ayni paytda amalga oshirayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'rib hayratga tushaman.

Ularning shogirdlari, yosh olimlarimiz tomonidan ayni mavzuda yangicha ilmiy-tadqiqotlar bajarilayotganligi ham juda quvonarli holat, albatta.

Biroq, adashmasam, Abu Rayhon Beruniyning nafaqat ilmiy ishlarini, uning o'zini, faoliyatini alohida fenomen sifatida ham chuqurroq o'rganish zarurati mavjud. Masalan, uning hayot tarzi, faoliyati yillar, hatto oylar va qolaversa, kunlar kesimida xronologik jihatdan yanada batafsilroq o'rganilishi lozim. To'g'ri, bu borada ishlar ko'p. Lekin ular yanada takomillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'lkamizda, masalan, navoiyshunoslar tomonidan Navoiy dahosini, uning nafaqat buyuk shoir va davlat arbobi sifatida, balki uning oddiy inson sifatidagi jihatlari ham juda yaxshi o'rganilgan.

Savol

Bu savol ham oldingi savollarning mantiqiy davomi desak bo'ladi. Aytingchi, sizningcha kelgusidagi beruniyshunoslik qanday bo'lishi kerak, Beruniy ijodining qaysi qirralarini tadqiqotlab deb hisoblaysiz? Ayni damda beruniyshunoslikdagi eng dolzarb masalalar nimalardan iborat?

Javob

Shaxsan men media tadqiqotchi bo'lganim uchun, beruniyshunoslar orasida jurnalist-olimlarni ham ko'rishni istardim. Negaki, buyuk allomani qadimgi jahon protojurnalistikasining asoschilaridan biri deb hisoblayman.

Uning bu borada amalga oshirgan ishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yanada ommalashtirishda, xususan dunyo jamoatchiligiga xorijiy tillarda sifatli yetkazish borasida ham bizning olimlarimiz yetakchi o'rinni egallashlari kerak.

Savol

Bobomiz kashf etgan ko'pgina ilmiy yangiliklar, vaqt o'tishi bilan jahon ilm-fan tarixida boshqa olimlar nomi bilan tilga olinadigan bo'lgan. Qomusiy bilimlar sohibi hazrati Beruniy shug'ullangan sohalarning bir tarmog'i bilan faoliyat olib borib tarixga o'zlarining nomlarini muhrlab ketganlar qancha (Nyuton, Eynshteyn, Plank, Rezerford, Geyzenberg, Shredinger,

Bor, Pauli, Dirak kabilar safini uzoq davom ettirish mumkin.). Aslida yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar kashfiyotlarining ilk bashoratchisi va mualliflaridan biri bizning bobomiz Abu Rayhon Beruniy ekanligini hazratning vorislari sifatida jahon afkor ommasiga qanday isbotlashimiz mumkin?

Javob

Bu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirish zarur. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning butun dunyo mamlakatlariga sochilib yotgan barcha tillardagi asarlarini bir joyga jamlab, virtual muzey tashkil qilish kerak. Bundan tashqari, beruniyshunoslar ishtirokidagi ilmiy anjumanlar, davra suhbatlarini bevosita chet ellardagi ilmiy-tadqiqot institutlarida, aql markazlarining o'zida tashkil etishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buyuk alloma faoliyati haqida turli tillarda ilmiy-ommabop asarlar yaratish, jurnallar, almanaxlar chop etish ham yaxshi samara beradi. Bulardan tashqari jahondagi yetakchi kino kompaniyalar bilan hamkorlikda dunyo standartlariga mos ko'p qismli badiiy filmlar yaratish va ularni xalqaro kino festivallarda namoyish etish kerak.

Savol

Beruniy boboning turli xil rakursdagi siymosini yaratish bo'yicha shoir, yozuvchi, rassom, haykaltarosh, rejissyor va shu kabi ijod sohasi vakillarining ishlari haqida nimalar deya olasiz? Va shu o'rinda qaysi ijodkorlarning nomlarini alohida tilga olgan bo'lar edingiz?

Javob

Bu borada, albatta, salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Biroq nazarimda qilingan ishlarimizdan amalga oshirilmaganlari ko'proq. To'g'ri, tarixiy filmlarda, mashhur shoirlarimizning she'rlarida bobomizning muborak nomlari ko'p tilga olingan. Uning portreti va haykali tarixiy faktlarga asoslanib yaratilgan. Bunga zarracha shubham yo'q.

Bir so'z bilan aytganda, ayni yo'nalishda jiddiy loyihalarni amalga oshirgan mutaxassislar mehnatini qadrlagan holda, ularning ishlarini hozirgi zamon auditoriyasiga mos ravishda so'zsiz davom ettirish tarafdoriman.

Muhimi, ularning siymosi, media imijini yoshlarimiz tomonidan yanada yaxshiroq va chuqurroq qabul qilinishiga erishishimiz kerak.

Savol

Abu Rayhon Beruniy nomini abadiylashtirish, uning bashariyat uchun qilib ketgan xizmatlarini munosib baholash, qomusiy allomaning shaxsi va ilmiy-ma'rifiy merosiga doir yana qanday targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

Javob

Buyuk ajdodimiz qoldirgan bebaho merosni butun jahon jamoatchiligi oldida keng targ'ib etish uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Xususan:

1. Abu Rayhon Beruniy qoldirgan ilmiy merosini o'zbek tilida va BMT tashkilotining barcha rasmiy tillarida turli zamonaviy multimedia mahsulotlarini tayyorlash (masalan, badiiy va hujjatli filmlar, Abu Rayhon Beruniy asarlarining elektron tarjimalari va hk) va ularni xorijdagi O'zbekiston elchixonalari orqali chet el jurnalistlari hamda xalqaro jamoatchilik vakillariga keng tarqatish zarur.
2. Abu Rayhon Beruniy merosiga doir virtual muzey tashkil etish kerak. O'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida. Muzeyda Abu Rayhon Beruniyning asl qo'lyozmalari, ularning olimlarimiz tomonidan qilingan tahlili va Abu Rayhon Beruniy asarlari kutubxonasi o'rin oladi. Bu Abu Rayhon Beruniyning jahonga tanitishga yordam beradi.
3. Abu Rayhon Beruniyning 1050-yillik yubileyiga bag'ishlab o'tkaziladigan xalqaro ilmiy anjumanlar va yubiley tadbirlarini keng va samarali yoritish uchun xorijdagi yetakchi OAV vakillarini bevosita jalb etish zarur.

Savol

Bugungi kun yoshlariga Beruniy bobo hayoti bilan bog'liq qaysi voqealarni namuna sifatida ko'rsatish lozim deb hisoblaysiz?

Javob

Birinchi navbatda ilm-fan va ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatga to'la munosabatni ko'rsatib berishimiz kerak.

Ikkinchidan, Beruniyning ming yil oldin yashagan bo'lsa-da, qator xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgani va hatto ushbu tillarda asar yozganligi, qolaversa, qadimgi 2-tildan 3-tilga bevosita tarjima qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklarini targ'ib qilish kerak. Hatto o'sha davrdayoq o'lik til hisoblangan sanskrit va lotin tillarini ham mukammal o'rganganliklarini hozirgi yoshlarga namuna sifatida aytib o'tishimiz kerak.

Savol

Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi borasida kelgusida qanday izlanishlar olib borishni rejalashtirgansiz?

Javob

Kelgusida buyuk olimning nafaqat o'zbek olimlari, balki jahon yetakchi universitetlarda faoliyat olib borayotgan geograflar, faylasuflar, tarixchilar va boshqa soha vakillari tomonidan turli aspektlarda o'rganilishi zarur.

Ular allomaning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan ishlarini har tomonlama batafsil o'rganishlari, o'z mamlakatlaridagi yosh olimlarga bu merosning bebaho ahamiyatini tushuntirishlari kerak.

Buning uchun Beruniy fondi imkoniyatlarini rivojlantirish, uning faoliyat doirasini xalqaro darajada yanada takomillashtirish yo'llarini topish kerak.

Savol

Sir emaski, XXI asr – axborot asri. Zamonning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, axborotlar sanoqli soniyalarda butun dunyo bo'ylab yetkazish mumkin bo'lgan bir paytda bundan ming yillar ilgari yashab ijod etgan, o'zlaridan boy ijodiy meros qoldirgan qomusiy olimlarimizning, xususan, Abu Rayhon Beruniy hayoti va ilmiy ijodini o'rganish qanchalik ahamiyatli deb o'ylaysiz?

Javob

Biz hozirgi zamon ilm-fan sohasi vakillari juda ko'p tadqiqotlarning metodologik asoslarini zamonaviy, ya'ni yaqindan boshlab muomalaga kiritilgan deb yanglish o'ylaymiz. Ayniqsa, ilmiy ishimiz uchun tanlangan mavzu yuzasidan topilgan materiallarimizni chog'ishtirma tahlil yoki ularni empirik aspektda solishtirish uchun turli vizual jadvallar, infografikalar chizamiz. Biroq bundan ming yil oldin Abu Rayhon Beruniyning bebaho ilmiy asarlarida allaqachon bu metodologik yondashuvni ko'rishimiz mumkin.

Aytmoqchimanki, biz buyuk alloma merosini shunchaki tarixiy manba sifatidagina emas, balki, uni hozirgi yosh olimlar, hatto endi tadqiqotini boshlayotgan ilmiy izlanuvchilar uchun ham yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi unikal qo'llanma sifatida ham baholashimiz mumkin.

Savol

Media makonda Abu Rayhon Beruniyning bugungi kun yoshlariga yaqindan tanishtirish uchun nimalar qilish lozim deb hisoblaysiz?

Javob

Buyuk olimning dunyo ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasini nafaqat O'zbekistondagi yoshlarga, balki butun dunyo yoshlariga yaqindan tanishtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

E'tirof etish kerak, Abu Rayhon Beruniydan tortib, Al-Xorazmiy, to Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari betakror siymolarimizga bag'ishlangan manbalarning o'ziyoq davlatimiz va xalqimizning xalqaro imiji nuqtayi nazaridan bemisl xulosalar chiqarishga imkon beradi. Biroq mavzu ayni ushbu aspektda mutlaqo o'rganilmagan, tahlil tadqiq etilmagan. Zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarilmagan. Qolaversa, yoshlar o'rtasida tizimli targ'ib qilinmagan.

Shularni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni ilgari surgan bo'lar edim.

1. Tashqi ishlar vazirligidan akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy OAV vakillarining O'zbekistonlik beruniyshunos olimlar bilan intervyu va suhbatlar tashkil etish, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida chet el muxbirlari bilan hamkorlikda maqolalar tashkil etishni yo'lga qo'yish kerak.

2. Abu Rayhon Beruniy merosini nafaqat milliy OAV, balki xalqaro media maydonda keng targ'ib qilish maqsadida jurnalistlar guruhini tashkil etish hamda

alohida media-reja ishlab chiqish zarur. Natijada jahon axborot maydonidagi Yangi O'zbekiston ilmiy boyliklariga oid nufuzi, imijini oshirish mumkin.

Savol

Ayting-chi, Abu Rayhon Beruniy ijodida axborot almashinuvi, axborotni qabul qilish, tarqatish, qayta ishlash kabi axborot bilan bog'liq jihatlar kuzatiladimi?

Javob

Albatta, kuzatiladi. Ayniqsa, dunyodagi yetakchi olimlar e'tirof etganidek, Beruniyning "Hindiston"iga o'xshagan asar umuman fan tarixida uchramaydi. Unda axborot to'plash, uni qayta ishlash va tarqatishning mumtoz namunasini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ushbu asarda ham mamlakat, ham yarim orolning turli xalqlari haqida shunchalik batafsil ma'lumot beriladiki, aql bovar qilmaydi.

Xususan bu hududdagi diniy tabaqalar, e'tiqodlar, xurofot, falsafa, aniq fanlar, qonun va urf-odatlar, diniy-tarixiy afsonalar, yozuv turlari, yarim orol geografiyasi, adabiyoti va hokazolar batafsil keltiriladi.

Savol

Jurnalistika sohasi va Beruniy ijodida mushtaraklik mavjudmi? Beruniy ijodi va jurnalistika o'rtasida o'rganilishi kerak deb o'ylaydiganingiz dolzarb jihatlar nimalardan iborat?

Javob

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy merosining jahon treyvel (sayohat) protojurnalistikasi rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida alohida fikr-mulohazalar bildirish mumkin.

"Osor ul-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asari Abu Rayhon Beruniyga juda katta shuhrat keltirgan, uni fanning barcha muhim sohalariga qiziquvchi buyuk olim ekanini butun dunyoga ko'rsatgan. Bundan tashqari, Beruniy astronomiya, metrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozgan.

Beruniy yaratgan asarlar orasida ham hajmi, ham ahamiyati jihatidan eng yirigi "Hindiston" hisoblanadi. Hozirgi hind olimlarining fikricha, Hindiston haqida haligacha hindlarning o'zlari ham shunday batafsil va ilmiy jihatdan qimmatli asar yaratmaganlar. Shu sababli hindlar bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy nomini chuqur hurmat bilan tilga oladilar.

Beruniy Hindiston haqida asar yozar ekan, hindlar hayoti, urf-odati, ayniqsa, e'tiqodiga oid diniy kitoblar bilan batafsil tanishadi. Buyuk olim faqat hind kitoblari bilan qanoatlanmay, balki qadimgi yunon, rim adiblari asarlaridan ham keng foydalandi.

"Hindiston" asarining rus tiliga tarjimasini uchun so'z boshi yozgan olimlar A.B.Xolidov va V.G.Ermanlarning qayd etishicha, Beruniy asarda Homer, Platon, Aristotel, Ioann Grammatik, afrodiziyalik Aleksandr, tianlik Apolloniy, Porfiri, Ammoniy, Arat, Galen, Ptolomey kabilarning asarlaridan foydalangan.

Asarning ayniqsa XVIII bobi trevel protojurnalistikasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda Hindiston geografiyasi haqidagi bilimlar tafsiloti tushunarli, ilmiy-ommabop tilda berilgan bo'lib, jumladan mamlakatdagi daryolar, dengiz hamda bu yerdagi viloyatlar va mavjud chegara hududlari o'rtasidagi masofalar to'g'risida aniq ma'lumotlar kiritiladi:

"...Ganga daryosining G'arbida joylashgan Kannauj shahri hududiy jihatdan juda katta yerni egallaydi. Biroq ayni paytda uning asosiy qismi buzilgan, vayrona holatda tashlab ketilgan. Chunki podshoh o'tiradigan joy Kannaujdan Ganga Sharqidagi Bari shahriga ko'chirilgan..."

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Anvar Allambergenov suhbatlashdi.